


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ПЕДАГОГ ВА РАЎБАР КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ  
ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ  
БОШ ИЛМИЙ-МЕТОДИК МАРКАЗИ

ТОШКЕНТ КИМЁ-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ ҲУЗУРИДАГИ  
ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ  
ТАРМОҚ МАРКАЗИ



**КИМЁВИЙ ТЕХНОЛОГИЯ**  
(органик моддалар ишлаб  
чиқариш бўйича)  
йўналиши

TOSHKENT  
KIMYO-TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI

“ZAMONAVIY ORGANIK KOMPOZITSION VA  
NANOMATERIALLAR TEXNOLOGIYALARI”

*moduli bo'yicha*

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

TOSHKENT – 2021 y.

*Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.*

**Tuzuvchilar:**

**X.E. Qodirov** – Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Organik kimyo va og‘ir organik sintez texnologiyasi” kafedrasida dotsenti, k.f.d.

**A.B. Jo‘raev** – Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Yuqori molekulyar birikmalar va plastmassalar texnologiyasi” kafedrasida dotsenti, t.f.d.

**R.A.Xabibullaev** – Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Sellyuloza va yog‘ochsozlik texnologiyasi” kafedrasida dotsenti, t.f.n.

**Taqrizchi:**

**A.M. Bochek** – Rossiya Fanlar Akademiyasi yuqori molekulyar birikmalar instituti Federal fan muassasalari tabiiy polimerlar laboratoriyasi (Rossiya, Sankt-Peterburg), yetakchi ilmiy xodim, k.f.d., prof.

*O‘quv-uslubiy majmua Toshkent kimyo-texnologiya instituti Kengashining 2020 yil 30-dekabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

1. Ishchi dastur .....	4
2. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari .....	10
3. Ma’ruza matnlari .....	20
4. Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar, topshiriqlar va ularni bajarish bo‘yicha tavsiyalar .....	88
5. Bitiruv ishlari uchun mavzular .....	137
6. Keyslar banki.....	139
7. Glossariy .....	143
8. Adabiyotlar ro‘yxati.....	151
9. Mutaxassis tomonidan berilgan taqriz.....	154

# 1. Ishchi dastur

## Kirish

Dastur rivojlangan mamlakatlardagi xorijiy tajribalar asosida “Kimyoviy texnologiya (organik mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha)” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi bo‘icha ishlab chiqilgan o‘quv reja va dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilimini va kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasida kimyo sanoatida qo‘llaniladigan kompozitsion va nanomateriallarning turlari, O‘zbekiston Respublikasida organik moddalar ishlab chiqarish zamonaviy korxonalari, zamonaviy istiqbolli import o‘rmini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilab borishga qaratilgan muammolari bayon etilgan.

## Modulning maqsadi va vazifalari

“Kimyoviy texnologiya (organik mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha)” yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o‘quv dasturining maxsus fanlar blokiga kiritilgan “Zamonaviy organik kompozitsion va nanomateriallar texnologiyalari” fani ishchi dasturining *maqsadi* – mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor o‘qituvchilarni kimyo sanoatida qo‘llaniladigan kompozitsion va nanomateriallarning turlari, O‘zbekiston Respublikasida organik moddalar ishlab chiqarish zamonaviy korxonalari, zamonaviy istiqbolli import o‘rmini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan texnologiyalari to‘g‘risida nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

“Zamonaviy organik kompozitsion va nanomateriallar texnologiyalari” fanining *vazifasi* - kompozitsion materiallarning texnologik ishlab chiqarishini rejalashtirish va tashkillashtirishni; texnologik jarayonlar o‘tkazilishini uchun optimal omillar tanlashni; organik moddalar ishlab chiqarish jarayonlaridagi mavjud dolzarb amaliy masalalarini echish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash, maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish; “Kimyoviy texnologiya (organik mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlashdir.

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

“Zamonaviy organik kompozitsion va nanomateriallar texnologiyalari” fani bo‘yicha tinglovchilarquyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- organik mahsulotlar asosida kompozitsion materiallar ishlab chiqarish korxonalaridagi zamonaviy texnologiyalarning turlari;
- kompozitsion va nanomateriallarning texnologik jarayonda qo‘llanilishi;
- innovatsion texnologiyalarda qo‘llaniladigan kompozitsion va nanomateriallar, ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlari;
- kompozitsion materiallar ishlab chiqarishda istiqbolli import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan texnologiyalar;
- kompozitsion materiallar ishlab chiqarishda alternativ energiya turlaridan foydalanishni *bilishi* kerak.

**Tinglovchi:**

- organik mahsulotlar asosida kompozitsion va nanomateriallar ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonning zarur texnologik parametrlarni tanlash;
- kompozitsion va nanomateriallarning afzallik va kamchilik tomonlarini farqlash;
- kompozitsion materiallarni ishlab chiqarishda amaldagi uskuna va jihozlarning

imkoniyatlaridan foydalanish;

- kompozitsion materiallar ishlab chiqarish texnologiyalarining tuzilmasi, jarayonlari va operatsiyalarining mazmun-mohiyatini tushuntirib berish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- organik mahsulotlar asosida kompozitsion materiallar ishlab chiqarish bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy qilish;
- kompozitsion va nanomateriallar ishlab chiqarish texnologiyalaridagi nozik bo'g'inni aniqlash;
- Internet tizimidan zamonaviy kompozitsion va nanomateriallar ishlab chiqarish texnologiyalarini izlab topish va ularni tavsiya qilish;
- texnologik jarayonlarning moslashuvchanligini tashkil qilish;
- organik mahsulotlar asosida kompozitsion materiallar ishlab chiqarish texnologiyalarni qo'llagan holda loyihalash **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

#### **Tinglovchi:**

- texnologik ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkillashtirish;
- texnologik jarayonlar o'tkazilishishi uchun optimal omillar tanlash;
- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Zamonaviy organik kompozitsion va nanomateriallar texnologiyalari” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Zamonaviy organik kompozitsion va nanomateriallar texnologiyalari” moduli qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishini bo'yicha o'quv rejadagi boshqa mutaxassislik fanlari bilan uzluksiz bog'liq bo'lib, ushbu fanlarni o'zlashtirishda amaliy yordam beradi. “Zamonaviy organik kompozitsion va nanomateriallar texnologiyalari” fanini to'liq o'zlashtirish va amaliy vazifalarni bajarishda yuqori bloklardagi fanlar katta yordam beradi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Kimyoviy texnologiya (organik moddalar ishlab chiqarish bo'yicha) – organik moddalar ishlab chiqarishlarining zamonaviy usullarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				nazariy	amaliy
1.	Organik sintez sanoatida kompozitsion materiallar	6	6	2	4

2.	Polimerlar va ular asosida plastik massalar ishlab chiqarish	6	6	2	4
3.	Yog‘och-polimer asosli kompozitsion materiallar	6	6	2	4
4.	Organik mahsulotlar ishlab chiqarishdagi nanomateriallar	10	10	4	6
	<b>Jami:</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>10</b>	<b>18</b>

### **Nazariy mashg‘ulotlar mazmuni**

**1-mavzu: Organik sintez sanoatida kompozitsion materiallar.** Kompozitsion ingibitorlarning turlari, sinflanishi, respublikamizda ishlab chiqarish istiqbollari. Kompozitsion ingibitorlar sintezi va texnologiyasi.

**2-mavzu: Polimerlar va ular asosida plastik massalar ishlab chiqarish.** Polimer kompozitsiyalar tayyorlash texnologiyasi. Polimer kompozitsiyasini yaratish prinsiplari.

**3-mavzu: Yog‘och-polimer asosli kompozitsion materiallar.**

Yog‘och kompozitlarning turlari. Yog‘och kompozitlarda inobatga olinadigan omillar. Sellyuloza asosidagi kompozitsion materiallar.

**4-mavzu: Organik mahsulotlar ishlab chiqarishdagi nanomateriallar.**

Organik nanomateriallar va o‘tkazgichlar. Organik nanomaterial namunalari. Nanozarrachalarning keng tarqalgan turlari va ularning qo‘llanilishi.

### **Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni**

**1-mavzu: Polimerlanish reaksiyasi usulida poliuretanni ishlab chiqarish texnologik sxemasini tanlash, jihozlarni hisoblash va tanlash.**

**2-mavzu: Polikondensatsiyalanish reaksiyasi usulida fenol-formaldegid oligomeri olish, u asosida plastik massalar ishlab chiqarishning texnologik sxemasini tanlash, jihozlarni hisoblash va tanlash.**

Karbamid-formaldegid oligomerlari asosida aminoplastlar ishlab chiqarish, jihozlarni hisoblash va tanlash.

**3-mavzu: Yog‘och-polimer asosli kompozitsion materiallarni o‘rganish.**



Yog‘och kompozitlarning turlari. Yog‘och kompozitlarda inobatga olinadigan omillar.

Sellyuloza sanoatidagi kompozitsion materiallarni o‘rganish.

**4-mavzu:Organik mahsulotlar ishlab chiqarishdagi nanomateriallarni o‘rganish.**

### **O‘qitish shakllari**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha echimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

## 2. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga qaratilgan.



**Namuna:** Kuydirilganbiomassa uchun SWOT tahlilini amalga oshiring.

<b>S</b>	Kuchli tomonlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ekologiyaning turli chiqindilar bilan ifloslanishining oldi olinadi;</li> <li>• hajmiy energiya sig‘imi oshadi (zichlik ortishi bilan);</li> <li>• yonish issiqligi oshadi;</li> <li>• tarkibidagi kislorod miqdori kamayadi;</li> <li>• quruq va gidrofob bo‘ladi;</li> <li>• tarkibidagi biologik moddalar kamayadi;</li> <li>• tarkibidagi xlor miqdori kamayadi;</li> <li>• mo‘rtligi ortadi, maydalash xarajatlari va zarrachalarning o‘lchamlari kamayadi, zarrachalarning sirt yuzasi ortadi;</li> <li>• sifati va gomogenligi yaxshilanadi;</li> <li>• kislota ajratmasdan toza yonadi.</li> </ul>
<b>W</b>	Kuchsiz tomonlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• investitsiya uchun xarajatlar talab etiladi;</li> <li>• joriy xarajatlar sarflanadi;</li> <li>• mahsulot ishlab chiqarishda energiya yo‘qotiladi;</li> <li>• mahsulotning zichligini va sifatini ta’minlash va saqlash muammosi;</li> </ul>

		<ul style="list-style-type: none"> <li>• sotib olish, mijozga sotish muammolari.</li> </ul>
<b>O</b>	Imkoniyatlari (ichki)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ekologiyaning ortiqcha chiqindilar bilan ifloslanishining oldi olinadi;</li> <li>• barcha biomassalardan olinadigan qo‘shimcha yuqori kaloriyali yoqilg‘i hisoblanadi;</li> <li>• minitexnologiyalarini ishlab chiqish mumkin.</li> </ul>
<b>T</b>	To‘siqlar (tashqi)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• qishloq xo‘jalik chiqindilarining (g‘o‘zapoya, somon, sholi qobig‘i va h.k.) "ega" lari bor;</li> <li>• iste‘molchilar bozori shakllanmagan;</li> <li>• boshqa o‘choqlarga moslashtirish zarur.</li> </ul>

### **Xulosalash metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi :



trener-o'qituvchi ishtrokchilarni 5-6 kishidan iborat kichikguruhlarga ajratadi;



Treneng maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtrokchilarnitanishtirgach, har bir guruhga umumiy muommoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatmamateriallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muommoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema buyicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan sung , trener tomonidantahlillar umumlashtiriladi , zaruriy axborotlar bilan tuldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

Alternativ yoqilg'i turlari					
Yoqilg'i briketlari		Pelletlar		Kuydirilgan yog'och	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining echimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo’llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Biomassadan olingan yoqilg’i briketida kul miqdori me’yordan yuqori ekanligi aniqlandi. Kul miqdorini kamaytirish yo’llarini izlang.

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muommoni chiqargan asosiy chiqargan asosiy sabablarni belgilang, zarur bilimlar ruyhatini tuzing (individual va kichik guruhda).
- Kul miqdorini kamaytirish uchun bajarilgan ishlar ketma-ketligini belgilang. (juftlikda ishlash).
- Kuydirilgan biomassadan kulni yuqotish yullarini izlang.
- Bajarilgan ishlarnitaqdimot qiling

## «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:** Quyidagi fikrni FSMU orqali tahlil qiling.

**FIKR:** “Sholi qobig‘i asosida yuqori kaloriyali briket olish mumkin”.

**SABAB:** “Piroliz natijasida hosil bo‘ladigan kulni kamaytirish uchun turli imkoniyatlar mavjud”.

**MISOL:** “Kuydirilgan sholi qobig‘ini yuvish va quritish usullaridan foydalanish mumkin”.

**UMUMLASHTIRISH:** "Sholi qobig‘i asosida yuqori kaloriyali briket olish uchun piroliz natijasida hosil bo‘lgan kulni yuvish va qayta quritish orqali yo‘qotish mumkin".

### **“Insert” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

➤ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

➤ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini tegishli so‘zlarning ostiga chizib yoki chizmasdan, maxsus belgilarni (v - tanish ma‘lumot, ? - mazkur ma‘lumotni tushunmadim, izoh kerak, + - bu ma‘lumot men uchun yangilik, "-" - bu fikr yoki mazkur ma‘lumotga qarshiman va h.k.) varaq hoshiyasiga qo‘yish orqali ifodalaydilar.

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta‘lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma‘lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi. Texnik matnni insert usulida belgilashni amaliy mashg‘ulotning uy vazifasi (mustaqil ish) sifatida berish ham mumkin.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar

nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Pin-Kay -briketlari	Briketlarning 4 yoki 6 qirrali turi. Ularning o‘rtasida radial teshik bo‘ladi. Briket mexanik shnekli presslarda yuqori bosimda (1000-1100 bar) presslanadi. Presslanayotganda briketlarni sirti issiqlik ta’sirida kuyadi va qorayib qoladi.	
Torrefaction	"Torrefaction" (fransuzcha "kuydirish") - biomassaga issiqlik bilan asta-sekin dastlabki ishlov berish va tozalash jarayonidir. Ishlov berish harorati 200-350°S oralig‘ida bo‘lib, bu jarayon xuddi kofe donalarini qovurishdagiga o‘xshab ketadi. Kuydirilgan biomassa qattiq energiya tashuvchi bo‘lib, biomassa va yog‘och ko‘miri o‘rtasidagi tabiiy xossalari yaxshilangan mahsulot hisoblanadi.	
Pellet	Yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan mayda briket. U mayda granula shaklida ishlab chiqariladi.	
RUF-briketlar	To‘g‘ri to‘rtburchakli prizma shaklidagi briketlar. Bu nom briket ishlab chiqaruvchi jihoz nomidan olingan. RUF-briketlarning shakli xuddi g‘ishtga o‘xshaydi. Bu briketlar gidravlik presslarda yuqori bosimda (300-400 bar) presslab chiqariladi.	

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan bo‘lishi mumkin.

**"Venn diagrammasi" metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita (uchta, to‘rtta va h.k.) o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali



ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.


### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt (3-5) kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **Namuna: Animatsiyalar yaratish imkoniyatlari bo‘yicha**



### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlarni tahlil qilish, rejalashtirish, bashoratlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash mumkin.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallar alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblarni tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch (3-5) kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa «0», mos kelsa «1» ball qo'yish so'raladi. SHundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga yakka tartibda (50%) va guruhda (50%) olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**«Turli biomassalarni torrefikatsiya qilish» ketma-ketligini joylashtiring.**

**O'zingizni tekshirib ko'ring!**

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Dag'al quritish					

Aniq quritish					
Torrefikatsiya					
Sovutish					
Maydalash					
Presslash					
Sovutish					

### **“Brifing” metodi**

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferensiya.

### **O‘tkazish bosqichlari:**

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. SHuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.

## **3. Ma’ruza matnlari**

### **1-ma’ruza: Organik sintez sanoatida kompozitsion materiallar.**

#### **Reja:**

1. Kompozitsion ingibitorlarning turlari, sinflanishi, respublikamizda ishlab chiqarish istiqbollari.
2. Kompozitsion ingibitorlar sintezi va texnologiyasi.

**Tayanch iboralar:** *Organik sintez, organik moddalar, texnologiya, xlorldash, kompleks texnologiyalar, etilen, atsetilen, “Staffer”, galogenlash reaktorlari, «Vinnolit», oksidlash-xlorldash, birlashtirilgan usul*

#### **1.1. Kompozitsion ingibitorlarning turlari, sinflanishi, respublikamizda ishlab chiqarish istiqbollari.**

Neft va gazlarni tashish va saqlash tizimida ishlatiladigan quvurlar, quvur armaturalari, nasoslar, rezervuarlar, temir yo‘l sisternalari va boshqa metall qurilmalar, asosan uglerodli va kam legirlangan po‘latlardan tayyorlanadi. Bu metall qurilmalar foydalanish jarayonida tashqi muxit (elektrolitlar, atmosfera havosi va boshqalar) bilan o‘zaro kimyoviy va elektrokimyoviy jarayonlar natijasida korroziyalanib, oksid va gidroksidlarini hosil qiladilar. SHunga ko‘ra metallar korroziyasi deganda, ularning tashqi muxit bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘ladigan kimyoviy yoki elektrokimyoviy jarayonlar natijasida sekinlik bilan emirilishi tushuniladi. Umuman korroziya so‘zi (termini) lotincha «Corrosio» so‘zidan olingan bo‘lib, metallning zanglashini parchalanishni va zanglashini emirilishni anglatadi. Metallarning korroziyalanishini sodir etuvchi sharoit korroziya yoki agressiv muxit deyiladi.

Metallar mexanik jarayonlar natijasida ham, (silliqlash, ishqalanish) emirilishlari mumkin. Lekin bular erozik emirilish bo‘lib, metallarning korroziyalanishini anglatmaydi.

Xalq xo‘jaligini turli tarmoqlarida ishlatiladigan asbob-uskunalar, jixozlar va texnologik qurilmalar, asosan metallardan tayyorlangan bo‘ladilar. Bajariladigan texnologik jarayonlarni turiga va sharoitiga ko‘ra, ularning bittasini massasi bir necha yuz tonnani tashkil qiladi. Masalan, neft-gaz bilan ta‘minlash tizimida ishlatiladigan namunaviy po‘lat rezervuarlarning massasi 500 tonnagacha bo‘ladi. Foydalanish jarayonida ichki va tashqi yuzalari korroziya faolligi yuqori bo‘lgan muxitlar (er tarkibida namlik, tuzlar, H<sub>2</sub>S, SO<sub>2</sub> bo‘lgan neft–gaz oqimi) ta‘sirida bo‘ladilar va korroziyalanadilar. Hosil bo‘lgan korroziya jaroxatlari, qurilmalarni tezda ishdan chiqishiga olib keladi. Ularni ta‘mirlash yoki yangilash uchun, katta miqdordagi pul va metall sarfi kerak bo‘ladi.

Umuman ietallar korroziyasi xalq ho‘jaligiga kattta ziyon keltiradi. Buni ko‘yidagi keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkin.

1. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra yil davomida ishlab chiqariladigan po‘lat qotishmalarining oltidan bir qismi, korroziya natijasida ishdan chiqqan metall qurilmalarini, asbob – uskunalarni, hamda ularning ehtiyoj qismlarini almashtirish uchun sarflanadi. Bu ko‘rsatkichni dune miqyosida ko‘radigan bo‘lsak, u bir necha

million tonnani tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bir nechta metall erituchi zavodlarni yil davomida ishlab chiqargan po‘lat qotishmalari bekorga sarflanadi.

2. XX-asrning oxiriga qadar, insoniyat tomonidan 35 mlrd. tonnadan ortiq po‘lat qotishmalari eritib olingan. Hozirgi kunda ularning dunyodagi umumiy ko‘rsatkichi 10 mlrd. bo‘lib, qolgan qismi esa korroziya mahsulotlari ko‘rinishida biosferaga tarqalgan.

Korroziyadan kurilgan zarar ikki xarajatning yig‘indisidan tashkil topadi, ya’ni bevosita va bilvosita xarajatlardan. Bu xarajatlarni neft va gaz quvurlari tizimida ko‘rsak bevosita xarajatlarga quvur metalining narxi, quvur va uning yordamchi qurilmalarini qurish uchun sarflanadigan mablag‘lar kiradi. Bilvosita xarajatlarga esa, korroziya natijasida quvurlarda sodir bo‘lgan avariylarni ta’mirlash davomida, ulardan foydalanayotgan korxonalarini ishlamay turgan paytdagi pul xarajatlari, avariylarni bartaraf etish uchun sarflanadigan metall va pul xarajatlari, hamda to‘kilgan yoki atmosferaga tarqalgan mahsulotlar hisobiga, atrof muhit komponentlarini bulg‘alanishi natijasida sodir bo‘ladigan salbiy oqibatlarining qiymatlari kiradi.

Bugungi kunda dunyoda polidentant birikmalar ishlab chiqarish 2,5-3,5 mln. tonnani tashkil etadi. Ishlab chiqariluvchi bu reagentlarning o‘rtacha 40 %, ya’ni 1,2 mln. tonnasi korroziya va mineral tuzlar to‘planishiga qarshi ingibitorlar ishlab chiqarish uchun sarflanadi. Korroziyaga qarshi Dodikor-4543, Dodikor-4712, Danox S1-252, Danox-CS 102 B, Sepacorr-ts 3201; K-I 75w rusumdagi va IOMS-1, OEDF, NTF-3, HELAMIN kabi mineral tuzlar to‘planishiga qarshi ingibitorlar keng foydalanib kelinmoqda. Metallarni korroziya va mineral tuzlar to‘planishidan himoyalash sanoatning barcha tarmoqlari qatorida suv ta’minoti uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Korroziya va mineral tuzlar to‘planishiga qarshi ingibitorlar ishlashchiqarish bo‘yicha jahonda T. Jscs SHidota, Romberger, A. John, A. Daniel, G. Woodward, C. Kelsten, P. Graham, B. Brettell, S.T. Arab, A.M. Al-Turkustani, L. Krayner, J. Herbert, J.Manspeker, M. Robi, G. Edwards V.YA. Temkin, N.V. Sirkulnikova, G.F. YAroshenko, R.P. Lastovskiy, Z.Virshpa, YA. Bjenizinskiy, P.A. Diray, N.M. Dyatlova, S.A. Bolezin, L.I. Antropov, N.V. Sirulnikova, A.P. Kovalchuk, F.F.

CHeusov, B.N.Dpikop, YU.N. Kalimullin, A.C. Mixalev, V.K. Pinigin, E.M. Urinovich, F. Kurbanov, A. Alovitdinov, A.T. Djalilov, D. YUusupov, V.P. Guro, A. Ikromov, S.M. Turobjonov va b., Federal University of Campina Grande, Braziliya, Korea Institute Science and Technology Department of Chemistry University of Crete (Gretsiya), Laboratory of Wood Biology and Xylarium, (Belgium), Helamin Technology Holding SA (SHveysariya); BASF b Hoechs/Knapsack (Germaniya), Goodrich, Monsanto va UCC (AQSH), OAO «NK «Rosneft» (Rossiya) ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va olib bormoqda.

## 1. 2. Kompozitsion ingibitorlar sintezi va texnologiyasi.

Mineral tuzlar to‘planishiga qarshi ingibitorlar sifatida foydalanish uchun etanolaminlar (mono- (MEA), di- (DEA) va trietanolamin (TEA)) foydalanib ko‘rilgan. Olingan natijalar ushbu reagentlar 0,5-2,0 mg/l konsentratsiyalarda 48-75% ingibirlash samaradorligiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Etanolaminlarning o‘rtacha ingibirlash samaradorligiga ega ekanligini ulardagi elektron juftlari saqlovchi guruhlarining kam faolligi bilan izohlanadi va ulardagi faollik MEA < DEA < TEA qatorida ortib boradi.

Samarali ingibitorlar olish maqsadida MEA, DEA va TEA hamda sanoat ingibitorlari nitril trimetilfosfon kislota, oksietiliden difosfon kislota turli nisbatlar qo‘shilib kompozitsiyalar tayyorlangan va sinab ko‘rilgan (1-jadval).

### 1-jadval


#### Etanolaminlar asosidagi kompozitsiyalarning ingibirlash samaradorligi

№	Ingibitor komponentlari	Ingibitor komponentlari konsentratsiyasi, mg/l	Samara, %		
			Suvning qattiqligi, mg·ekv/l		
			4 - 6	7 - 9	10 - 12
1	Monoetanolamin + nitriltrimetilfosfon kislota	0,5 + 0,5	87	86	85
		1,0 + 1,0	89	89	88
		1,5 + 1,5	90	89	89
		2,0 + 2,0	91	90	90

2	Dietanolamin + nitriltrimetilfosfon kislota	0,5 + 0,5	88	87	86
		1,0 + 1,0	90	90	89
		1,5 + 1,5	91	91	90
		2,0 + 2,0	94	91	90
3	Trietanolamin + nitriltrimetilfosfon kislota	0,5 + 0,5	89	88	88
		1,0 + 1,0	91	90	89
		1,5 + 1,5	93	91	90
		2,0 + 2,0	95	92	91
4	Monoetanolamin + oksietilidendifosfon kislota	0,5 + 0,5	90	89	89
		1,0 + 1,0	92	90	89
		1,5 + 1,5	94	92	91
		2,0 + 2,0	95	93	92
5	Dietanolamin + oksietilidendifosfon kislota	0,5 + 0,5	91	90	90
		1,0 + 1,0	93	91	90
		1,5 + 1,5	95	93	92
		2,0 + 2,0	96	94	93
6	Trietanolamin + oksietilidendifosfon kislota	0,5 + 0,5	92	91	89
		1,0 + 1,0	94	91	90
		1,5 + 1,5	95	93	92
		2,0 + 2,0	97	94	92

Ingibitor sifatida OEDF÷MEA÷EFK÷AVK-ekstrakt÷H<sub>2</sub>O (10+15+15+1+59)

tarkib kompozitsiyaning ingibirlash samaradorligi.




NTF÷MEA÷EFK÷AVK-ekstrakt÷H<sub>2</sub>O (10+15+15+1+59) kompozitsiyasi

Ushbu kompozitsiya mineral tuzlar to‘planishiga qarshi yuqorisamarali (90 % dan kam emas) ingibitor ekanligi ko‘rinadi va fizik-kimyoviy va ekspulatsion xususiyatlari bo‘yicha bu turdagi ingibitorlarga qo‘yilgan barcha me‘yorlarga mos keladi.

Korroziya va mineral tuzlar to‘planishiga qarshi ingibitor aralashtirish usuli bilan 35-40°S xaroratlarda olinadi. Jarayon quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

- natriy gidroksidi va monoetanolamin kub qoldig‘i eritmalarini tayyorlash;
- oksietiliden difosfon kislotasi va rux oksidi suspenziyasini tayyorlash;
- korroziya va mineral tuzlar to‘planishiga qarshi ingibitor ishlab chiqarish.



1-rasm. Korroziya va mineral tuzlar to‘planishiga qarshi universal kompozitsiyalar ishlab chiqarishning texnologik sxemasi

$E_1$  – glitserin uchun sig‘im;  $E_2$  – monoetanolamin kub qoldig‘i uchun sig‘im;  $V_1, V_2, V_3$  – mos ravishda oksietilidendifosfon kislotasi, ZnO va NaOH uchun bunkerlar;  $R_1$  va  $R_2$  – reaktorlar;  $H_1$  va  $H_2$  – nasoslar;  $F_1$  va  $F_2$  – filtrlar;  $E_3$  va  $E_4$  – tayyor mahsulot ingibitori uchun qabul idishlari

Natriy gidroksidi va monoetanolaminning suvli eritmalarini tayyorlash zanglamas po‘latdan tayyorlangan tashqi isitish moslamasi va aralashtirgich bilan jihozlangan  $R_1$  reaktorda olib boriladi. Avvaldan hisoblangan miqdor suv bilan to‘ldirilgan reaktorga natriy gidroksidi solinadi va aralashtiriladi. Suvli eritma hosil bo‘lish vaqtida reaktor rubashkasigi sovuq suv uzatiladi. Natriy gidroksidi kristallari to‘liq erigandan so‘ng reaktorga  $E_2$  yoki  $E_3$  sig‘imlardan monoetanolamin kub qoldig‘i qo‘shiladi. Aralashtirish va sovitish 10-15 daqiqa davom ettiriladi.



Ikkinchi bosqich yakorli meshalka bilan jihozlangan R<sub>2</sub> reaktorda olib borilib, dastlab suv, glitserin va asosiy modda massa ulushi 98,0 % dan kam bo'lmagan oksietilidendifosfon kislota solib aralashtiriladi. Reaktor suv yordamida sovutilishi yoki isitilishi uchun tashqi quvurli element bilan jihozlangan. Reaktorning ostki mahsulot chiqish qismiga namuna olish qurilmasi o'rnatilgan. Aralashtirish 5-8 daqiqa oksietilidendifosfon kislota kristallari to'liq erigunga qadar davom ettiriladi, bunda oq rangdagi oksietilidendifosfon kislota rux kompleksionati suspensiyasi hosil bo'ladi. Olingan mahsulot optimal kompozitsion tarkibi (rux oksidi : glitserin : OEDF : MEAKQ: ABK-Ekstra : suv = 5,9 : 0,42 : 16,8 : 20,6 : 0,28 : 56,0) bo'lib, himoyalash saradorligi 90 % dan kam emasligi aniqlanadi.

### *Nazorat savollari*

1. Kompozitsion ingibitorlar ishlab chiqarishni joriy qilishning istiqbollari.
2. Azotsaqllovchi kompozitsion korroziya ingibitorlari;
3. Fosforsaqllovchi kompozitsion korroziya ingibitorlari;
4. Kompozitsion katalizatorlar ishlab chiqarishni joriy qilishning istiqbollari.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Wittcoff, Harold. Industrial organic chemicals.-2nd ed. / Harold A. Wittcoff, Bryan G. Reuben, Jeffrey S. Plotkin. p. cm. Includes index.2004. 686 p.
2. T.W. Graham Solomons. Organic chemistry. (University of South Florida) Craig B. Fryhle (Pacific Lutheran University), Scott A. Snyder (Columbia University). 2013. – 1255 s.

## 2-ma'ruza: Polimerlar va ular asosida plastik massalar ishlab chiqarish.

### Reja:

1. Polimer kompozitsiyalar tayyorlash texnologiyasi.
2. Polimer kompozitsiyasini yaratish prinsiplari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** kompozitsiya tarkibi, toʻldiruvchi, plastifikator, qotiruvchi stabilizatorlar, aralashtirish, quritish, eritish, maydalash, granullash, tabletkalash, oldindan qizdirish, yuqori chastotali qurilma.

**1. Polimer kompozitsiyalar tayyorlash texnologiyasi.** Avvalo yuqorida koʻrsatilganga qarab kompozitsiya tarkibini aniqlash lozim, undan soʻng tarkibiga kiruvchi xom ashyolarni aralashtirishga kirishiladi.

Bundan oldin zavod laboratoriyasida PMK tarkibiga kiruvchi komponentlarning texnologik hossalarni aniqlash kerak. Buni ayrim paytlarda xom ashyoni kiritishdagi tekshirish koʻrsatgichlari deb ataladi.

Komponentlarning analiziga quyidagilar kiradi: zichlik, sochiluvchanlik (сыпучесть), granulometrik tarkib, namlik, tabiiy qiyshayish burchagi (угол естественного откоса), sochilish zichligi, zichlantirilgan materialning zichligi.

**Aralashtirish** – texnologik jarayon boʻlib, unda birin–ketin komponentlarni qoʻshish va ularning hossalarni kerakli tomonga yoʻnaltirish, kompozitsiyani gomogenlashtirish. Aralashtirish asosan ikki yoʻnalishda ketadi: makrodarajada, yaʼni sochiluvchan yoki qattiq zarrachalarni suyuqlikda aralashtirish va mikrodarajada, yaʼni oquvchan holatda aralashtirish. Bu bir hil (однородный) massa hosil boʻlishiga olib keladi. Aralashtirish natijasida kompozitsiyani fizik holati ham oʻzgarishi mumkin (erish, suyuqlanish) hamda kimyoviy reaksiya borishi uchun (polimerni initsiatori yoki qaytaruvchi bilan aralashtirish) sharoitini yaratib beradi. Aralashtirish lozim boʻlgan komponentlarni holatiga qarab quyidagi usullar qoʻllaniladi:

1. Sochiluvchan moddalarni aralashtirish;
2. Sochiluvchan yoki suyuq moddalarni aralashtirish;
3. Suyuqliklarni aralashtirish;
4. Polimerlari oquvchan holatda aralashtirish.

**Sochiluvchan holatdagi moddalarni aralashtirish** ko‘proq polimerlarga pigmentlar berishda qo‘llaniladi (opudrirovaniye). Bu protsess ko‘proq valsyoki ekstruderlarda amalga oshiriladi. Quruq holatda aralashtirish maxsus meshalka–barabanlarda amalga oshiriladi bu to‘ldiruvchi va polimer poroshok holatida bo‘lganda va ikkilamchi xom ashyoni ishlatishda qo‘llaniladi.

**Sochiluvchan va suyuq komponentlarni aralashtirish** ko‘proq plastifikatorlarni, erituvchilarni, rang beruvchi moddalarni aralashtirishda qo‘llaniladi. Tayyorlangan kompozitsiya pasta holatida bo‘ladi. Bu jarayon, aralashtirilayotgan massa uskunaning devoriga yopishib qolmasligi uchun maxsus aralashtirgichlarda amalga oshiriladi.

**Polimerlarni oquvchan holatda aralashtirish** usulida bir tekisda aralashtirish sodir bo‘ladi, chunki aralashtirish polimerlarning oquvchanlik haroratidan sal yuqoriroq haroratlarda olib boriladi. Bu jarayon valslarda amalga oshiriladi. Gomogenizatsiyaga erishish uchun massani bir necha marta valslar oralig‘idan o‘tkazish kerak. Valslar oralig‘ini o‘zgartirish mumkin. Bu er davallarning bir–biriga nisbatan tezligiga (friksiya) ham e‘tibor berish kerak.

**Polimer kompozitsiyasini granula holatiga aylantirish** Granulalash polimerni sochiluvchan donador mahsulotga aylantirishdir. Granullash sochilgan holdagi zichlikning qiymatini oshirib beradi: material granulari deyarli bir xil o‘lchamga ega (3–5 mm). Sochilgan holdagi hajmiy og‘irlikning ortishi granuladan buyum oluvchi agregatning ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi.

Granulalash jarayoni quyidagilardan iborat: poroshok holatidagi polimer yoki PKM silindrga solinadigan (silindr ichida aylanib turadigan shnek mavjud va tashqi tomondan kerakli bo‘lgan haroratgacha isitiladi) va harorat ta’siri ostida material oquvchan holatga o‘tib shnek yordamida uni shakllovchi kallak orqali lenta yoki (prutok holatda) uzluksiz siqib chiqaradi va sovutib kesib granulaga aylantiriladi. Bunday agregatlar granulyator nomi bilan yuritiladi. **Tabletka olish** Termoreaktiv kompozitsion materiallar ko‘pincha sochiluvchan holatda bo‘ladi. Ulardan bu holatda foydalanish ancha noqulaylikka olib keladi. Shuning uchun ular oldindan zichlab tabletka holiga keltiriladi. Bu jarayon ftoroplastlar uchun ham qo‘llaniladi.

Tabletkalash maxsus gidravlik (avtomatlashtirilgan) presslarda bajariladi. Xona haroratida press–kukunlari ma’lum o’lcham va shakldagi, havodan ozod bo’lgan jipslashgan massaga aylanadi. Tolasimon press materiallardan shnekli agregat orqali ma’lum shaklga (arqon holatidagi) ega bo’lgan tabletka olish mumkin.

Tabletkalash press poroshoklarning sochilib yo’qolishini kamaytiradi. Tabletkalar tezroq isiydi, issiqlikning atrof muhitga tarqalishi kamayadi va o’lchab berish osonlashadi. Natijada presslash usuli bilan olingan buyumni umumiy vaqti (sikl pressovaniya) kamayadi.

### **Polimer materiallarni oldindan qizdirib olish**      Termoreaktiv

materiallardan presslash usuli bilan buyum olish hamda vakuum va pnevmoshakllash; list va plyonkalar orientatsiyasi, payvandlash yuqori haroratda amalga oshiriladi. Shuning uchun dastlabki qizdirib olish plastmassa qayta ishlash texnologiyasida muhim ahamiyatga ega. Buyumlarning sifati, agregatning ish unumdorligi tabletkalarni baravar qizdirib olishga bog’liq. Dastlabki qizdirib olish buyumlar olishda yuqori harorat ta’siridagi destruksiyani kamaytiradi (presslash vaqti ham kamayadi). Masalan, list materiallardan buyum olishda agar material bir hil qizdirilmasa, u holda makromolekulalarning orientatsiya darajasi har hil bo’ladi, qoldiq kuchlanish bo’ladi, natijada buyumlarda mikrodarzlar va buzilish yuzaga keladi. Polimer materiallar issiqlik o’tkazuvchanligi past bo’lgani uchun qotirish jarayoni qiyinlashadi, bunda presslashda faqat material yuzasi qiziydi. Dastlabki qizdirib olish podpressovka va presslash vaqtini kamaytiradi, bunda buyum yuzasida pufak (vzdutie) bo’lmaydi.

Dastlabki qizdirib olishni qurilish shkaflari yoki yuqori chastotali qurilmalarda va infraqizil issiqlovchilarda amalga oshirish mumkin. Yuqori dielektrik hossalari polimer materiallar qurilish shkaflarida qizdiriladi. Bundan tashqari qurilish shkaflarida tiniq listlarni qizdirib olish ham maqsadga muvofiq chunki infraqizil qizdirish samarasizroq.

Yuqori chastotali toklar bilan material qizdirilganda, u kondensator plastinalari orasiga joylashtiriladi. Tabletka ko’rinishidagi material erga ulangan (zazemlenie)

kondensatorga joylanadi. Plastinalarni yuqori chastotali tok generatoriga ulanganda plastinkalar orasida kuchlanishli elektor maydoni hosil bo'ladi:

$$|E| = I / N$$

bu erda: I—beriladigan kuchlanish, V;

N—plastinalar orasidagi masofa, m.

Materiallarni yuqori chastotali tokda qizishi ularning tuzilishiga bog'liq. Qutblanmagan polimerlar (PE, PS, ftoroplastlar) yuqori chastotali elektr maydonida qizdirilmaydi. SHuning uchun ular yuqori chastotali tok izolyatorlari sifatida ishlatiladi. Qutblangan polimerlar (PVX, FFS) elektr maydonida juda tezlikda qizdiriladi. Polimerlarni yuqori chastotali tokda qizdirilishga moyilligi ularning  $\epsilon$ tgahosilasiga teng bo'lgan dielektirik yo'qotish qiymati orqali aniqlash mumkin ( $\epsilon$ —dielektrik singdiruvchanlik). Bu hosila qancha katta bo'lsa, shuncha ko'p elektr energiyasi issiqlik energiyasiga o'tadi. Yuqori chastotali qurilmalar to'la quvvatidan foydalanganimizda termoreaktiv materiallarni qizdirish vaqti odatda 20–30 sek ni tashkil qiladi. Bunda qizdirilgan material harorati 120–130<sup>0</sup>S bo'ladi. Bu reaktoplastlarni qotirish vaqtini 20–30% kamaytiradi va podpressovka sonini qisqarib, buning natijasida gidravlik press va pressformaning edirilishi kamayadi.

**2. Polimer kompozitsiyasini yaratish prinsiplari.** Yangi polimer kompozitsion materiallarni yaratishdan asosiy maqsad fizik–mexanik xususiyatlar kompleksini yaxshilashdir. Xususiyatlar kompleksining asosiy ko'rsatkichi — materialning sinishga (strukturaviy buzilishga) qarshilik ko'rsatishi, ya'ni mustahkamlikdir. Mustahkamlikning eng yuqori qiymati ideal yoki idealga yaqin strukturali sistemalar uchun xarakterlidir. CHunonchi, S—S–bog'larning uzilishga ko'rsatadigan qarshiliklarining yig'indisi sifatida olingan, polimerning cho'zilishdagi mustahkamligining hisoblangan qiymati 19000 MPa ga teng. Bu aslida –S—S– bog'lardan tuzilgan ideal kristallning mustahkamligidir.

Mustahkamlikning haqiqiy qiymati biroz kamroq. Chunonchi, PE monokristallining mustahkamligi 13000 MPa ni tashkil qiladi, o'ta orientirlangan

PP tolasining mustahkamligi – 9000, eritmadan orientatsiyalab tortilgan PE tolasining mustahkamligi esa 4000 MPa ga teng. Biroq, mustahkamlikning bunday qiymatlarini ham plastmassalarni qayta ishlashning sanoat usulida olib bo‘lmaydi, va PENP ning bosim ostida ekstruziyalab olingan oddiy plyonkasi esa atigi 10–12 MPa mustahkamlikka ega.

Ideal strukturalar mustahkamligini amalda yuzaga chiqarish imkoniga ega bo‘lmaganliklari sababli, olimlar qadimdan real, mavjud materiallarning xususiyatlarini yaxshilash yo‘lidan borganlar. Ildizi chuqur tarixga singib ketgan kompozitlar yaratish tajribasi shu tarzda to‘plangan. Polimerlar asosidagi ma’lum kompozitlarning dastlabkisi – bu vavilonliklar tomonidan bitum smolasini qamish bilan armirlab yasalgan qurilish materialidir (eramizdan oldingi 4000–2000 yillar).

***Polimer kompozitsion materiallar (PKM)*** deganda ikki yoki undan ko‘p komponent (tarkibiy qism)li geterofazali sistemalar tushuniladi; bunda bitta komponent matritsa hisoblanadi, uning ichida chegaralovchi sirtlar bilan qurshalgan boshqa komponent (yoki komponentlar) muayyan holatda taqsimlangan bo‘ladi. SHunday qilib, har bir komponent haqiqiy eritma komponentlaridan farqli o‘laroq kompozitda o‘z individualligini saqlab qoladi. Soddalashtirilgan tarzda, kompozitdagi har bir komponent o‘z hajmiga ega, ya’ni alohida faza shaklida bo‘ladi, va bunda har bir alohida fazaning xususiyati alohida olingan komponentning xususiyati kabidir deb hisoblash mumkin.

Ko‘pchilik hollarda cho‘zilishdagi mustahkamlikni oshirish imkoniyati bo‘lmaydi, va bunda kompozitni yaratishdan maqsad siqilishdagi mustahkamlik, zarbga chidamlilik, kimyoviy chidamlilik va moy–benzin ta’siriga chidamlilik kabi xususiyatlarini oshirish, ishlanuvchanlik, tashqi ko‘rinish yoki buyum o‘lchamlari barqarorligi va h.k. larni yaxshilashdan iborat bo‘lib qoladi. Qator hollarda PKM mavjud materiallar assortimentini kengaytirish yoki xom ashyo bazasini kengaytirish maqsadida yaratiladi. Sanoat va maishiy plastmassa chiqindilarini qayta ishlashda PKM ning roli tobora muhim bo‘lib bormoqda. Haligacha sanoati rivojlangan mamlakatlar maishiy chiqindilardan ishlab chiqarish hajmiga nisbatan atigi 3–5% polimer utilizatsiya qilmoqdalar. Keyingi yuz yillik boshida bu miqdorni

50%–gacha etkazish masalasi qo‘yilmoqda. Ikkilamchi polimer xom ashyosini qayta ishlab yangi buyumlar olish asosan PKM yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

PKM yaratish so‘ngi yillarda plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi rivojining bosh yo‘nalishi bo‘lib qoldi va hossalari yaxshilangan yangi materiallar olishning asosiy rezervi sifatida qaralmoqda.

### **PKM ning sinflanishi va umumiy xususiyatlari**

#### Konstruksion

materiallarning uch xili mavjud: metallar, keramikalar, polimerlar. Konstruksion materiallar asosan yuklama kattaligi, uning ta‘sir qilish vaqti, qayishqoqlik va oqishning oniy moduli, ya‘ni deformatsiyaning boshlang‘ich va oxirgi qiymati (xizmat muddatining boshi va oxirida), buyumning moddiy sig‘imi (massasi), uning issiqbardoshligi, yorilishga chidamliligi va h.k. bo‘yicha muayyan talablarga javob bergan holda mexanik (statik yoki dinamik) kuchni ushlab maqsadida qo‘llaniladi.

Metall konstruksion materiallarning asosi hamisha qotishmalardir, bunda qo‘shilgan materialning (metall yoki keramika) o‘lchamlari ko‘pchilik hollarda 10–100 nm ekanligi bu materiallarni kompozitlar deb hisoblashga asos bo‘ladi.

Keramik konstruksion materiallar – texnik shisha, oddiy keramika va betonlardir. Oxirgi ikki tur kompozitsion material sanaladi. Texnik shishalar esa ba‘zan kompozit olish uchun matritsa sifatida ham ishlatiladi.

Polimer konstruksion materiallar hozirgi vaqtda ko‘proq kompozitlardan yasalmoqda. Metall qotishmalaridan farqli o‘laroq polimer aralashmalari va qotishmalari doim geterofazalidir. Shu sababli polimerlar aralashmalari, to‘ldirilgan polimerlar, ko‘pikplastlar kompozitlarning tipik vakillaridir.

### **Polimer kompozitsion materiallar (PKM) ning turlari**

Polimer kompozitsion materiallarning hammasida matritsa polimer bo‘lganligi sababli, ularning xususiyatlarining farqi ikkinchi fazaning kimyoviy tabiati, uning zarrachalarining shakli, kalta va uzluksiz armirolovchi tolalarning o‘lchami va mumkin bo‘lgan orientatsiyalari bilan belgilanadi. SHubhasiz, bu PKM larning xususiyatlari dastavval polimer–matritsaga bog‘liq.

**PKM larning prinsipial kamchiliklari quyidagilardir:**

1. Matritsa modulidan boshqa har qanday modulning matritsa moduliga kiritilishi zarracha–matritsa chegarasida yangi kuchlanishlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu jarayon qattiq zarrachalar yoki gaz zarrachalari qo‘shilgan holda ham yuz beraveradi. Zarracha va matritsa o‘rtasidagi chegarada kuchlanishning mavjudligi mikrobuzilishlar hosil bo‘lishiga va keyinchalik yoriqlar hosil bo‘lib namunaning sinishiga olib kelishi mumkin.

2. Matritsa materiali va zarrachalarning materiali turli issiqlikdan kengayish chiziqli koeffitsientiga ega ( $\alpha_m$  va  $\alpha_f$ ). Har qanday usul bilan qayta ishlashda isish jarayoni sovush jarayoni bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Issiqlikdan kengayishning turlicha bo‘lishi sezilarli qoldiq kuchlanishlarining hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida material mustahkamligining pasayishiga olib keladi.

3. PKM ga yuklama ostida sezilarli deformatsiyalanmaydigan qattiq to‘ldirgich zarrachalarining qo‘shilishi oqibatida to‘ldirgich miqdorining ortishi bilan PKM ning deformatsiyalanishi kamayadi. Agar polimerni va uning asosidagi kompozitni bir xil uzunlikka cho‘zsak, kompozit tarkibidagi matritsa to‘ldirgich ishtirokisiz berilgan deformatsiyani ta’minlaydi va shu sababli u individul polimerga nisbatan ko‘proq deformatsiyaga uchraydi. To‘ldirgich miqdori ortishi bilan matritsaning ko‘proq deformatsiyalanishi polimer qatlamining zarrachadan uzilishiga va g‘ovaklilikning, ya’ni kompozitda mikrodefektlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

4. Qattiq plastmassaga mustahkamligi kam bo‘lgan to‘ldirgichni (masalan, elastomer) qo‘shilishi natijasida yuklama ta’sir qilayotgan yuza kuchsizlanadi, va materialning mustahkamligi kamayadi. Ko‘rsatilgan sabablar kompozitning mustahkamligining matritsa polimeri mustahkamligiga nisbatan kamayishiga olib keladi. Aslida to‘ldirgichning qo‘shilishi PKM ning ba’zi xususiyatlarining yaxshilanishiga olib keladi. Demak, bunday holda xususiyatlarni yaxshilovchi omillarning samarasi yuqorida keltirilgan salbiy ta’sir qiluvchi omillarnikidan yuqori bo‘lishi kerak.

**PKM xususiyatlarini yaxshilovchi omillar quyida keltirilgan.**



1. PKM da paydo bo'layotgan mikrotirqish ikki hil tarzda o'sishi mumkin. Birinchi holda, tirqish zarrachani buzib (yorib, parchalab, bo'lib) o'tishi mumkin. Bunda albatta, zarrachani yorish uchun energiya sarflanadi. Sarflanayotgan energiya PKM ning mustahkamligiga proporsionaldir. Ikkinchi holda, tirqish zarracha sirtidan aylanib o'tib ketishi mumkin. Bu holda ham tirqishning o'sish traektoriyasi ortishi sababli ko'proq energiya sarflanadi. Demak PKM tarkibidagi to'ldirgich zarrasi tirqishning o'sishiga qarshilik ko'rsatadi. Mustahkamligi kam bo'lgan to'ldirgich zarrachasi (masalan, elastomer yoki havo pufakchasi) qo'shilgan holda esa (fazalararo qatlam kuchsiz bo'ladi) o'sayotgan tirqishning uchi yo'qoladi va polimer deformatsiyalanib tirqishning yana davom etishiga qarshilik ko'rsatadi. Bu hol ayniqsa mo'rt bo'lmagan polimerlar asosidagi ko'pikplastlarda yaqqol ko'rinadi – tirqish havo pufakchasiga to'qnash kelganda o'sishdan to'xtaydi.

2. Kuchsiz fazalararo qatlamning mavjudligi kuchlanishlarning tirqish uchida relaksatsiyalanishinigiga ta'minlamaydi, balki ichki (qoldiq) kuchlanishlarning, shu jumladan issiqlikdan kengayish turlicha bo'lganda hosil bo'lgan qoldiq kuchlanishlarning relaksatsiyasini ham ta'minlaydi. Demak, mutahkamlikning oshishiga yoki qoldiq kuchlanishlarning kamayishiga materialni (ayniqsa, mo'rt va yuqori darajada to'ldirilgan material bo'lsa) sezilarsiz darajada ko'piklantirish usuli bilan ham erishish mumkin.

3. Fazalararo qatlamning (MFS) mustahkam bo'lishi materialning mustahkamligini oshiradi. MFS ning kattaligi esa polimerning qattiq zarracha yuzasi bilan o'zaro ta'sir darajasiga ko'proq bog'liq. Polimerlarda MFS ning o'ziga hos tomoni u polimerlarda juda uzun (katta) bo'ladi. Masalan, yuqori dispersli to'ldirgichni PKM ga 0,1–0,5% miqdorda qo'shish polimerning butun hajmining kristallanishi uchun etarlidir. To'ldirgich miqdorini yanada oshirish polimer matritsasining zarrachalar sirtiga taqsimlanishiga va MFS ning kattalashishiga, oqibatda material mustahkamligining ortishiga olib keladi. 4.

Ta'sirlashuvchi fazalar bir–biridagi defektlarni o'zaro yo'qotishi mumkin. Masalan, qattiq jism sirtini polimer bilan ho'llash (qoplash) natijasida to'ldirgich sirtidagi mikrotirqishlarda kuchlanishlar kamayadi, buning natijasida to'ldirgichning haqiqiy

mustahkamligi va demakki, PKM ning ham mustahkamligi ortadi. Bu hodisani armirlangan plastinalarda kuzatish mumkin. Chunonchi, armirlovchi shisha tolalarining va iplarining mustahkamligi, polimer bilan qoplanmagan tola va iplarnikidan 1,15–2,2 marta kattadir.

#### **Nazorat savollari:**

1. Polimerlarni past molekularli moddalardan ajratib turadigan asosiy farqlari.
2. Amorf polimerlarning uch fizik xolatini tushuntirib bering.
3. Polimerlarni erituvchilarda erishining o'ziga xosligini tushuntiring.
4. Polimerlarning yuqori elastik xolati va bu xolatni namoyon etish sabablari.
5. Polimer molekula massasining polidispersligi nima bilan tushuntiriladi.
6. Polimerlarni o'rtacha massaviy va o'rtacha raqamiy molekula massalarini topish va ularni farqi nimani bildiradi?
7. Polimerlar qanday reaksiyalar yordamida sintez qilinadi? Misollar keltiring.
8. Gaz fazasida va suyuq fazada polimerlanish reaksiyalariga muxit xarorati va bosimning ta'sirini tushuntiring.
9. Polimerlar ishlab chiqarishning texnologik usullari. Xar bir usulning yutuq va kamchiliklari.
10. Yuqori bosimda polietilen olish texnologiyasi. YUBPE ning xossalari muxitdagi kislorod miqdori, xarorat darajasi va reaksiyon massani uzatilish joylari miqdorini ta'sirini misollar bilan tushuntiring.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Donald G. Baird, Dimitris I. Collias. Polymer Processing: Principles and Design, 2nd Edition. Wiley. SSHA 2014. R. 169
2. John A. Tyrell. Fundamentals of Industrial Chemistry: Pharmaceuticals, Polymers, and Business 1st Edition. Publisher: Wiley. SSHA, 2014. R. 655



### 3-ma'ruza: Yog'och-polimer asosli kompozitsion materiallar.

#### Reja:


1. Yog'och kompozitlarning turlari.
2. Yog'och kompozitlarda inobatga olinadigan omillar.
3. Sellyuloza asosidagi kompozitsion materiallar.

**Tayanch so'z va iboralar:** kompozit, shpon, payraha, qirindi, yog'och zarrachalari, qipiq, yog'och tolalari, yog'och uni, duradgorlik plitalari, soto-plitalar, fanera, egib elimlangan zagotovkalar, yog'och-qirindili plitalar, orientirlangan qirindili plitalar, yog'och tolali plitalar, MDF, MDP.

#### 1. Yog'och kompozitlarning turlari

Yog'och kompozitlariga misol qilib fanera, yog'och-qirindili plitalar, yog'och tolali plitalar va yog'ochli press-massalar kabi materiallarni misol qilib keltirish mumkin.

Yog'ochli kompozitlarni ularning zichligi, xom ashyo turi va tayyorlanish usuli bo'yicha quyidagicha sinflash mumkin<sup>1</sup>.




5.2-rasm. Yog'och kompozitlarining xom ashyo turi, zichligi va tayyorlash jarayonlari bo'yicha sinflanishi

Ushbu rasmdan yog‘och xom ashyosi qanchalik mayda bo‘lsa, yog‘ochli kompozitlarning zichligi shunchalik yuqori bo‘lishini, hamda tolasimon xom ashyo asosidagi kompozitlarni olishda ho‘l usuldan keng foydalanilishini ko‘rish mumkin.

Yog‘och engil va pishiq, issiq-sovuq, shovqin va vibratsiyadan himoyalovchi, elektr o‘tkazmaydigan, oson mexanik ishlov beriladigan, yaxshi elimlanadigan, noyob tashqi ko‘rinishga ega, oson qayta ishlanadigan, inson uchun zararsiz konstruksion material hisoblanadi. SHu bilan birga u namlik ta‘sirida deformatsiyalanadi va yoriladi, mustahkamligi kamayadi, chirish va yonish xususiyatlariga ega. Yog‘ochga mexanik-kimyoviy ishlov berish orqali undan yanada mustahkam va yuqoridagi kamchiliklardan holi bo‘lgan konstruksion materiallar ishlab chiqariladi. Bularga duradgorlik plitalari, faneralar, egib elimlangan materiallar, yog‘och qirindili va yog‘och tolali plitalar, yog‘ochli press-massalar misol bo‘la oladi.

*Duradgorlik plitalari* GOST 13715-78 bo‘yicha ishlab chiqariladi. Bu material shit ko‘rinishida bo‘lib, asosi reykalardan yig‘iladi, yuza va orqa tomoni shilingan shpon bilan qoplangan bo‘ladi. Yuza va orqa qatlamlar sintetik elim bilan yopishtiriladi.



5.3-rasm. Duradgorlik plitasi:

1– yuza qatlam; 2 – reyka; 3 – orqa qatlam; L – uzunligi; B – eni; h – qalinligi.

Sanoatda duradgorlik plitalari reykalarni yelimlamasdan, yelimlab yoki yog‘och bloklarini yelimlab olinishi mumkin. Plitalarning yuzalari qoplanmagan yoki qoplangan, jilvirlangan yoki jilvirlanmagan bo‘lishi mumkin (5.1-jadval).

Plitalar arzon yog‘ochlardan ishlanadi. Reykalar bir xil yog‘ochdan bo‘lishi, ularning eni qalinligidan ko‘pi bilan 1,5 marta katta bo‘lishi zarur. Ustki va pastki qatlamlar plitaning uzunligiga perpendikular yo‘nalgan bo‘lishi lozim. Plitalarning yuzasi avval yo‘nilgan shpon (GOST 99-75) bilan qoplanadi. Ularning ustiga randalangan shpon (GOST 2977-82) qoplanishi mumkin. Qoplanmagan plitalar  $m^3$  da, qoplangan plitalar esa  $m^2$  da o‘lchanadi. Plitani tayyorlashda GOST 14231-78 bo‘yicha karbamid-formaldegid va fenol-formaldegid elimlari ishlatiladi.


5.1-jadval

Duradgorlik plitalarining o‘lchamlari va navlari

Uzunligi, mm	Eni, mm	Qalinligi, mm		Navlari		
		jilvirlan- magan	jilvir- langan	qoplan- magan	bir tomoni qoplangan	ikki tomoni qoplangan
2500±5	1525±5	16±0,6	16±0,4	A/B, AB/BB, B/BB	I/B, II/B	I/I, II/II
	1220±4	19±0,8	19±0,6			
1830±5	1220±4	22±0,8	22±0,6			
1525±5	1525±5	25±0,8	25±0,6			
		32±1,0	32±0,8			

Duradgorlik plitalari shitli va korpusli mebel ishlab chiqarishda, eshik va devorlar, polkonstruksiyalari, qurilma mebellar, kema kayutalari va vagonlar kupelarini yasashda keng qo‘llaniladi. **Soto-plitalar** duradgorlik plitalarining zamonaviy turi bo‘lib, juda tejamkor va samarali material hisoblanadi. Ular sendvich tipidagi plitalarning bir turi hisoblanadi. Uya qobirg‘alari kraft kartondan yoki

qog'ozlar bilan elimlangan shpon parchalaridan yasalishi mumkin. Uyalarning eni 15–50 mm oraliqda bo'lishi mumkin. Uya qobig'ining balandligi brusning qalinligidan  $1\pm 0,5$  mm katta bo'lishi kerak. Pastki qatlamning yo'nalishi, uya qobirg'alarining cho'zilish yo'nalishiga perpendikular bo'lishi kerak.



5.4-rasm. Soto-plitalar

1 – brusok; 2 – uyali qobirg'alar; 3 – qoplama.

Ustki qatlam sifatida fanera, yog'och tolali plita yoki o'zaro perpendikular joylashgan ikkita shpon ishlatilishi mumkin. Hozirgi kunda shitli va korpusli mebel detallari sotoplastlardan yasalmoqda (5.4-rasm).

**Fanera** (GOST 3915-69) yo'nilgan shpon qatlamlarini o'zaro bir-biriga perpendikular yo'nalishda elimlab olingan qatlamli material hisoblanadi. Odatda, shpon qatlamlari soni toq bo'ladi. Tashqi yuza qatlamda orqa qatlamdagiga nisbatan yog'och nuqsonlari kam bo'lishi kerak. Fanera tabiiy yog'ochga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega: deyarli barcha yo'nalishdagi mustahkamligi bir xil, qurishdan kichrayish va yorilish kuzatilmaydi, quriganda kam qiyshayadi, oson egiladi, yupqa va keng formatli material, tashish qulay va yoriqlar bo'lmaydi. Ushbu afzalliklari tufayli fanera qurilish, mebelsozlik, vagonlar, kemalar yasash va

aviasozlikda keng qo'llaniladi. Mebelsozlikda faneradan filenka, o'rindiqlik, suyanchiqlik, devor, polka, orqa devor va yashik tagi kabi detallar olinadi.

U oq qayin, qandag'och, shumtol, qayrag'och, eman, qayin, lipa, tog'terak, terak, zarang, archa, qarag'ay, oq qarag'ay, kedr, tilog'och kabi yog'ochlardan olinadi.

Ishlatilishiga ko'ra oddiy, qoplangan va maxsus faneralarga bo'linadi. Faneraning tashqi qatlamlari qaysi yog'ochdan qilingan bo'lsa, u o'sha yog'ochdan yasalgan hisoblanadi. Faneraning qatlamlari o'zaro 90, 60, 45, 30° burchak ostida joylashgan bo'lishi mumkin. Qalinligiga ko'ra fanera yupqa (1,5;2;2,5 mm), o'rtacha qalinlikdagi (3;4;5;6 mm) va qalin (7;8;9;10;12;15;18 mm) bo'lishi mumkin. Besh xil navga bo'linadi: A/AB, AB/B, B/BB, BB/C, C/C; bu erda surat – yuza qatlamning, maxraj – orqa qatlamning navini ko'rsatadi.

## 5.2-jadval

Oddiy faneraning o'lchamlari va qatlamlaridagi shponlarning navlari

Uzunligi, mm	Eni, mm	Qalinligi, mm	SHpon navi
2440±5	1525±5	1,5; 2; 2,5±0,2	YUza qatlami: A, AB, B, BB, C navlar.  Ichki qatlamlari: I, II, III navlar.
	1220±4	3±0,3	
2135±5	1525±5	4±0,35	
1830±5	1220±4	5±0,4	



1525±5	1525±5	6; 7; 8; 9±0,45 10; 12; 15; 18±0,7	
	1220±4		
	725±4		
1220±4	1220±4		
	725±4		

**Oddiy fanera** (GOST 3916-69) bo'yicha ishlab chiqariladi. Kvadrat yoki kub metrlarda o'lchanadi (5.2-jadval).

**Qoplangan faneraning** (GOST 11519-77) bir tomoni qimmatbaho yog'ochlarning (eman, yong'oq va nok) randalangan shponi bilan qoplangan bo'ladi. Fanera bir tomonlama yoki ikki tomonlama qoplangan bo'lishi mumkin. SHpon radial, yarim radial, tangensial, tangensial-ko'ndalang teksturaga ega bo'lishi mumkin. Qoplangan fanera yuzalari jilvirlangan yoki jilvirlanmagan bo'lishi mumkin (5.3-jadval). Qoplangan fanera mebel, qurilish panellari, devorlar, to'siqlar, qurilma mebel ishlab chiqarishda, vagonlar va kayutalar ichini pardoqlashda ishlatiladi. Kvadrat yoki kub metrlarda o'lchanadi.

## Qoplangan faneraning o'lchamlari va navlari

Uzunligi, mm	Eni, mm	Qalinligi, mm	SHpon navi
1830±5	1220	4±0,3	1-2
1525±5	1525±5	5±0,4	
		6±0,4	
		8±0,4	
		9±0,4	
	1220±4		
	725±4		



a)



b)



5.5-rasm. Oddiy (a) va randalagan shpon bilan qoplangan (b) faneralar

**Dekorativ faneraning** (GOST 14614-79) sirti dekorativ qog'ozli plyonka bilan qoplangan bo'ladi. U bir yoki ikki tomoni qoplangan, qoplamasi yaltiroq va yarim xira bo'lishi mumkin (5.4-jadval).

## Dekorativ faneraning turlari, qoplamalari va o'lchamlari

Fanera markasi	Qoplama turi	Smola turi	O'lchamlari
DF-1	Shaffof (rangsiz yoki bo'yalgan), tabiiy yog'och teksturasini yopmaydi	karbamid-formaldegid	Uzunligi: 2440, 2135, 1830, 1525, 1220 ±4-5 mm; Eni: 1525, 1220, 725±4-5 mm; Qalinligi: 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12±0,4-0,9 mm.
DF-2	Shaffofmas, qimmatbaho yog'ochlar teksturasini imitatsiyalovchi yoki boshqa rasmlil qog'oz bilan	karbamid-formaldegid	
DF-3	Shaffof, suv ta'siriga chidamliligi yuqori chidamli (rangsiz yoki bo'yalgan), tabiiy yog'och teksturasini yopmaydi	melamin-formaldegid	
DF-4	Shaffofmas, suv ta'siriga chidamliligi yuqori, qimmatbaho yog'ochlar teksturasini imitatsiyalovchi yoki boshqa rasmlil qog'oz bilan	melamin-formaldegid	

Dekorativ fanerada oq qayin, qandag'och, lipa, tog'terak, terak shponlari ishlatiladi. Yuza qismlari uchun A navdagi shpon ishlatiladi. Shaffofmas markalar uchun AB navdagi shpon ishlatiladi (5.6-rasm).



5.6-rasm. Dekorativ fanera

Bir tomoni qoplangan faneraning orqa qatlami uchun BB navli shpon ishlatiladi. Dekorativ fanera 1-2 navlarda chiqariladi. Dekorativ fanera mebel ishlab chiqarishda, vagon va kemalar uchun duradgorlik panellari, devorlar, shiplar sifatida ishlatiladi. Kvadrat metrlarda o'lchanadi. **Bakelitlangan fanera** (GOST 11539-

73) oq qayinning o‘zaro perpendikular yo‘nalgan shilingan shponlaridan elimlab tayyorlanadi. Bu faneraning suv va atmosfera ta’siriga chidamliligi hamda mustahkamligi yuqori bo‘ladi (5.7-rasm).



5.7-rasm. Bakelitlangan fanera

Yuza qatlamlar uchun B, ichki qatlamalar uchun BB navdagi shpon ishlatiladi. Tashqi qatlamlari spirtida eruvchi smola bilan shimdiriladi. FBS, FBS<sub>1</sub>, FBV, FBS-A, FBS<sub>1</sub>-A markalarda chiqariladi. Bakelitlangan fanera mashinasozlik, avtomobilsozlik va qurilishda atmosfera sharoitida foydalaniladigan konstruksiyalarni yasash uchun ishlatiladi. O‘lchamlari – uzunligi 5600 va 7700 ±40 mm, eni 1200–1550±20 mm, qalinligi 5, 7, 10, 12, 14, 16, 18 mm (-0,5...+2 mm). Kvadrat yoki kub metrlarda o‘lchanadi.

**Egib elimlangan zagotovkalar** shpon yoki faneradan egib va elimlab yasaladi (5.8-rasm).

Egib-elimlash usuli bilan stol-stullarning oyoqlari va sargalari, suyanchiqlari, o‘rindiqlari, yon suyanchiqlari, mebelning egilgan fasad detallari, yumshoq mebellarning prujinalari ham yasaladi. SHuningdek, qurilishda arkalar va zinalarning konstruksion elementlari ham yasaladi. Elim sifatida karbamid-formaldegid smolalari ishlatiladi. Shponlar-ning qalinligi 0,75; 0,95; 1,15; 1,5 mm va undan ham katta bo‘lishi mumkin. Egib-elimlangan zagotovkalar bug‘li, elektr kontaktli va yuqori chastotali tok bilan jihozlangan press-qoliplarda presslanadi.



5.8-rasm. Egib yelimplash usulida yasalgan mebel detallari

**Yog‘och qirindili plitalar** (DStP) (GOST 10632-77) bog‘lovchi modda bilan aralashtirilgan yog‘och qirindilarini issiq presslab olinadi (5.9-rasm). Yog‘och qirindili plitalar 3 xil markada ishlab chiqariladi: P-1, P-2, P-3 (5.5-jadval).

5.5-jadval

Yog‘och qirindili plitalarning xususiyatlari

Ko‘rsatkichlari	P-1	P-2	P-3
Uzunligi, mm	2440, 2750, 3500, 3660, 5500 $\pm$ 5,0		
Eni, mm	1200, 1500, 1750, 1830, 2440 $\pm$ 3,0		
Jilvirlangan plitalarning qalinligi, mm	h=10-25 $\pm$ 0,2 mm $\Delta$ h=1 mm	h=10-25 $\pm$ 0,3 mm $\Delta$ h=1 mm	h=16-22 $\pm$ 0,3 mm $\Delta$ h=1 mm
Jilvirlanmagan plitalarning qalinligi, mm	-	h=10-26 $\pm$ (0,5-0,6) mm $\Delta$ h=2 mm	h=16-24 $\pm$ 0,5 mm $\Delta$ h=2mm
Suv shimishi, %, ko‘pi bilan	me‘yorlanmaydi	15	15
Suv shimib shishishi, %, ko‘pi bilan	20	30	-

Plita yuzasiga nisbatan perpendikulyar choʻzish, MPa, kamida	0,343	0,295	0,392
Statik egilishdagi mustahkamlik, MPa, (h=10-14 mm)	19,61	15,69	-
(h=15-19 mm)	17,65	14,71	24,51
(h>20 mm)	16,67	13,37	24,51
Qattiqligi, MPa, kamida	meʼyorlanmaydi	meʼyorlanmaydi	29,4
Zichligi, $kg/m^3$	650–800	550–750	750–850
Gʻadir-budurligi, mkm, koʻpi bilan (gʻadir-budurlik sinfi)			
- jilvirlanmagan plitalarniki	-	320 (5)	320 (5)
- jilvirlangan plitalarniki	80 (7)	200 (6)	200 (6)
Mebelda ishlatilishi	mebel elementlari	mebel elementlari	-
Qurilishda ishlatilishi	panellar	panellar, qurilish konstruksiyalari, vaqtinchalik inshootlar	pol, tom, devor panellari, antersollar, deraza tokchalari konstruksiyalarining elementlari
Iqtisodiyotning boshqa sohalarida	asbobsozlikda gʻoloflar, panellar	asboblarni, mashinalarning korpuslari, tara, konteyner, stellajlar	avtofurgonlar kuzovi detallari, vagonlarning devorlari
Qoplash va pardozlash turi	termoreaktiv va termoplastik polimerlar asosidagi plyonkalar, lok-boʻyoq materiallar	shpon, dekorativ qogʻoz-qatlamli plastik, loklar	shpon, dekorativ qogʻoz-qatlamli plastik, loklar, linium





5.9-rasm. Qoplanmagan va qoplangan yog‘och qirindili plitalar

***Orientirlangan qirindili plitalar*** (OSB, OSP) – yog‘och qirindili plitalarnig yangi turi bo‘lib, yog‘och payraxalari ma‘lum yo‘nalishda joylashgan bo‘ladi, payraxalar suvga chidamli elim bilan elimlanadi. Elim sarfi DStP ga nisbatan kam bo‘ladi. Payraxalarning qalinligi 0,6 mm, uzunligi 140 mm gacha boradi. Tashqi qatlamdagi payraxalar plitaning uzunligi bo‘ylab yo‘naltiriladi, ichki qatlamdagi payraxalar esa perpendikular yo‘naltirilgan bo‘ladi (5.10-rasm).



5.10-rasm. Orientirlangan qirindili plitalar

OSB, asosan, qurilish, transport, tara va mebel buyumlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Qurilishda tom yopish, tashqi va ichki devorlarni qoplash, xomaki va mozaik pollar yotqizish, tom yopmalarining konstruktiv elementlari sifatida, zina qurish, vaqtinchalik qurilish inshootlari sifatida, tashish uchun yashiklar yasash, stellajlar qurish, kema va vagonlar kayuta va kupelar qurishda, avtomobillarning konstruksiyalari, yuk mashinalarining kuzovlari va pritseplari sifatida ishlatiladi. Mebel ishlab chiqarishda esa yumshoq mebelning konstruktiv detallari, mebel polkalari, stol qopqoqlari, reklama shitlari sifatida ishlatiladi. OSB, asosan, 4 turda ishlab chiqariladi: OSB-1, OSB-2 suv tasiriga chidamsiz, OSB-3, OSB-4 esa chidamli bo‘ladi; OSB-1 ning mustahkamligi kam, OSB-2 va OSB-3 niki yuqori,

OSB-4 niki esa juda yuqori bo‘ladi. OSB ni boshqa yog‘och materiallar bilan taqqoslash uchun quyudagi taxminiy ko‘rsatkichlarni keltirish mumkin (5.6-jadval).

5.6-jadval

Yog‘och plitalarning solishtirma ko‘rsatkichlarini baholash

Ko‘rsatkichlar	Baholash ballari					
	OSB	Yaproqli yog‘och fanerasi	Nina bargli yog‘och fanerasi	Arralangan materiallar	MDF	DStP
Egilishdagi mustahkamlik	4	4	4	4	2	1
Qayishqoqlik moduli	4	4	4	4	1	1
Ochiq atmosfera sharoitida foydalanish	3	3	3	3	1	1
O‘lchamlarining turg‘unligi	3	3	3	3	2	1
Og‘irligi (zichligi)	3	3	2	3	2	3
Mixni ushlashi	4	4	3	4	2	4
Ishlov berish osonligi	5	4	3	5	3	4
Nuqsonsizligi	5	3	3	2	5	5
Qoplanishi	3	3	3	2	5	2
Bo‘yalishi	2	2	3	2	5	4
<b>Jami ballar</b>	<b>36</b>	<b>33</b>	<b>31</b>	<b>32</b>	<b>28</b>	<b>26</b>

OSB ning fizik-mexanik xususiyatlari DStP nikidan deyarli 2,5 barobar yuqori. 24 soat ichida suv shimib shishishi 17–25% ni tashkil etadi. **Yogoch tolali plitalar** (DVP) (GOST 4598-86) maxsus qo‘shimchalar qo‘shib yog‘och yoki o‘simlik tolalaridan olinadi. Asosiy xomashyo sifatida turli chiqindilardan (yog‘och bo‘laklari, gorbil va reyklar, qirindilari, butoqlar, shoxalar) olingan yog‘och payraxalari ishlatiladi (5.11-rasm). DVP ning qattiq va yumshoq turlari bor. Qattiq DVP ning yuzasi qoplanmagan (T), mayda yog‘och zarrachalari bilan qoplangan (T-S), bo‘yalgan (T-P), mayda yog‘och zarrachalari bilan qoplanib bo‘yalgan (T-SP), o‘ta qattiq qoplanmagan (ST), o‘ta qattiq mayda yog‘och zarrachalari bilan qoplangan (ST-S). Qattiq DVP fizik-mexanik xususiyatlariga ko‘ra A va B guruhlariga bo‘linadi. Yumshoq plitalar zichligiga ko‘ra M-1, M-2 va M-3 markalari bilan ishlab chiqariladi.





5.11-rasm. Yog'och tolalali plitalar


Yumshoq plitalar, g'ovakli bo'lib, kam issiqlik va tovush o'tkazadi. Ular qurilishda, issiqlikdan himoyalovchi material sifatida devorlar, shiftlar va uying ichki qismini qoplashda ishlatiladi. Qattiq plitalar eshiklar qoplamasi, qurilma shkaf detallari, korpusli mebellarning orqa devorlari, yashiklarning tagi, egilgan detallari sifatida ishlatiladi. Mebelda, pol va uy ichini qoplashda, devor panellarida, vagonlar, avtobuslar, avtomobillar ichini qoplashda qattiq va bo'yalgan DVP ishlatiladi (5.7-jadval). DVP plitalari metr kvadratlarda o'lchanadi.

5.7-jadval

DVP ning fizik-mexanik xususiyatlari va o'lchamlari

Ko'rsatkichlar nomi	ST, ST-S	T. T-P, T-S, T-SP		M-1	M-2	M-3
		A guruhi	B guruhi			
markadagi plitalar uchun me'yorlar						
Zichlik, $kg/m^3$	950-1100	850-1000	800-950	300-400	200-300	100-200
Egishdagi mustahkamlik chegarasi, MPa	50	40	35	2	1,2	0,5
24 soat ichida qalinlik bo'yicha bo'kish, %	13	20	23	me'yorlanmaydi		
Namlik, %	3-7	5-10	5-10	me'yorlanmaydi		
24 soat ichida suv shimish, %	6	9	11	me'yorlanmaydi		
Uzunligi, mm	(3660; 3355; 3050; 2745; 2440; 2140) $\pm 3$			(3000; 2700; 2500; 1800; 1600; 1220) $\pm 5$		
Eni, mm	(2140; 1830; 1525) $\pm 3$			1220 $\pm 5$		
Qalinligi, mm	(2,5; 3,2; 4,0; 5,0) $\pm 0,3$			(8; 12; 16) $\pm 1$		

**O'rtacha zichlikdagi yog'och tolali plitalar** (MDF – Medium Density Fiberboard) yangi paydo bo'lgan material bo'lib, DVPning quruq usulda olinadigan turi hisoblanadi. U 700–870  $kg/m^3$  zichlikka ega bo'lib, mebel plitalari sifatida qo'llaniladi va hozirgi kunda DStPni siqib chiqarmoqda.



**5.12-rasm. MDF asosidagi mebel detallari**

MDF plitalari mustahkam, monolit tuzilishga ega bo'lganligi uchun unga gul o'yich mumkin, unamlik va zamuburug'lar ta'siriga chidamli, hatto egilgan mebel fasadlarini ham yasash mumkin. MDF qoplanmagan holda hamda tabiiy va sintetik shpon, qog'ozli va PVX plyonkalari bilan qoplangan holda ishlab chiqariladi.

*Yog'ochlipress-massalar* (MDP) (GOST 11368-89) mebel buyumlari dastollar, shkaflar, taburetkalarningoyoqlari, dekorativ elementlar, idishlar, deraza framugalari kabi detallar ko'rinishida ishlatiladi. Ular 6–15% karbamid-formaldegid smolasi bilan aralashtirilgan yog'och zarrachalaridan quruq usulda, qoliplarda issiq presslab olinadi (5.13-rasm).



**5.13-rasm. MDP asosidagi mebel detallari**

Presslash jarayonida detallarning sirti dekorativ qirindi, yupqa polimer plyonkalar, teksturali yog'och, randalangan shpon bilan qoplanishi mumkin. Detallar o'ta mustahkam bo'lib, zichligi  $1000\text{--}1100 \text{ kg/m}^3$ , egilishdagi mustahkamligi 40 MPa, zarbiy qovushqoqligi  $10 \text{ kJ/m}^2$ , 24 soat ichida suv shimish 15% ni tashkil etadi.

## 2. Yog‘och kompozitlarda inobatga olinadigan omillar

Eng yirik yog‘och mahsulotlari bozori bu – fanera, orientirlangan qirindili plitalar (OSB), yog‘och tolali (MDF) va yog‘och qirindili plitalar ishlab chiqarishdir. Faneradan tashqari barcha plitalarda yelimlar yog‘och zarrachalari bilan yaxlit yog‘och-yelim matritsasini hosil qiladi. Plitalarning mustahkamligi berilayotgan kuchning elim va yog‘och fazalariga tekis taqsimlanishiga bog‘liq. Kompozitsiyalarda (yog‘och tolali yoki qirindili plitalarda) elim va yog‘och (tolalar yoki qirindilar) o‘rtasida adgeziya kuchlari paydo bo‘ladi; keyin ular yuqori temperatura ostida presslanadi va tayyor mahsulot olinadi. Bunday jarayonda ishlatiladigan elim xona temperaturasi ostida qotib qolmasdan, yuqori temperatura ta’sirida presslanganda qotishi zarur. Yog‘och-elim aralashmalarida va elimlangan yog‘och buyumlaridan foydalanishda quyidagi omillarga e’tiborni qaratish zarur (5.8-jadval).

5.8-jadval

### Yelimlangan yog‘ochda inobatga olinadigan omillar

Elim uchun	YOg‘och uchun	Jarayon uchun	Foydalanishda
Elim turi	Yog‘och turi	Yelim miqdori	Mustahkamlik
Qovushqoqligi	Zichligi	Yelimning taqsimlanishi	Siljish moduli
Molekulyar massaning taqsimlanishi	Namlik miqdori	Namlik miqdori	Namlik ta’siridagi deformatsiya
Reagentlar nisbati	Yuza turi: radial, tangensial, ko‘ndalang, aralash	Temperaturasi	Kirishish
Qotish tezligi	Yadroyoki etilgan yog‘och	Yashovchanligi	Navi
Quruq qoldig‘i	Yosh yoki kekxa daraxt	Umumiy ushlab vaqti	Nuqson turi
Katalizator	Erta yoki kech etilgan yog‘och	Presslash	Quruq yoki nam ekanligi
Aralashtirish	Reaktiv yog‘och	Elim bilan ho‘llanishi, elim shimishi	Elastiklik moduli
Yopishqoqligi	Tolalar qiyaligi	Gaz o‘tkazuvchanlik	Temperaturasi
To‘ldirgich	G‘ovaklilik	Presslash vaqti	Gidrolizga chidamliligi
Erituvchilar	Yuza notekisligi	Dastlabki ishlov berish	Issiqlikka chidamliligi
Ishlatilish muddati	Qurishdan yorilish	Keyingi ishlov berish	Biologik chidamliligi

Vodorod ko'rsatkichi	Ishlov berish nuqsonlari	Asosning temperaturasi	Pardozlash
Himoyalanganligi	Ifloslanganlik, tashqi qo'shimchalar		Nurlanishlarga chidamliligi
	Ekstraktiv moddalar		
	Vodorod ko'rsatkichi		
	Himoyalalanish xususiyati		

Yelimgan yog'och materiallarda bog'lovchi miqdori 8-20% ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, uning narxini bilish juda muhim. Bundan tashqari, yog'och yuzalari jips yopishganligi sababli ularning oralig'iga juda kam elim sarflanadi, biroq yog'ochning elimni shimishi katta muammolarni keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan qaraganda, fanerada shpon yuzalari juda jips yopishmasa ham ularning faqat yuza qatlamlaridagina elim bo'lishi talab etiladi.

### **3. Sellyuloza asosidagi kompozitsion materiallar.**

#### **Sellyuloza asosida kompozitsion materiallar tayyorlashda qo'laniladigan xom ashyolar**

##### **1. Yarim tayyor sellyuloza:**

- sholipoya sellyuloza; - somon sellyuloza;
- g'o'zapoya sellyuloza;
- saflorpoya sellyuloza.

##### **2. Kompozit materiallar:**


- paxta tolalari;
- har xil rangli sintetik tasmalar;
- mayda po'kaklar;
- bo'yoqlar;
- har xil o'lchamli mayda qum.

**Ishdan maqsad:** O'simlik polimeridan yarim tayyor sellyuloza olish va ulardan har xil suyuq gulqog'oz kompozitlar tayyorlash.

**3. Texnologiyasi.** Tajriba yo‘li orqali suyuq gul qog‘oz kichik miqdorda ishlab chiqarish uchun laboratoriya sharoitida qilingan ishlarga asoslanib texnologik jarayon olib boriladi. Ishlab chiqarilmoqchi bo‘lgan mahsulotning xarakteristikasi. Texnologik jarayonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Yarim tayyor sellyuloza olish uchun poya larni maydalash.
- Pishirish eritmalarni tayyorlash.
- Surtuluvchi massa tayyorlash.
- Bir tonna suyuq gul qog‘ozning material balansi.
- Texnologik jarayon ishlab chiqarishni boshqarish va nazorat qilish.
- Suyuq gul qog‘oz ishlab chiqarishda texnika xavfsizligiga rioya qilish.


**Sanoat miqyosida olishni texnologik sxemasi:**



**Xom ashyoni ishlab chiqarishga tayyorlash.** Bir tonna suyuq gulqog‘oz (quruq holdagi) tayyor mahsulotini tayyorlash uchun, havo quruqligida xom ashyolarni tayyorlab olindadi: oq rangdagi 400kg sellyuloza qog‘ozi chiqindisi (MS-1 markali), 400 kg paxtadan qilingan kalava ip yoki tekstil ikkilamchi chiqindisidan (trikotaj paypoq ishlab chiqarish chiqindilari), 10 kg zarxal yoki toblanuvchi sun‘iy

tolalardan, 19,5kg maxalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan kraxmal, 170 kg karboksilmetilsellyuloza (KMS) elimdan 0.5kg.


**Xom ashyoni maydalash.** Tortilgan xom ashyolarni  $0,1\text{m}^3$  li maydalash apparatiga (1-rasm) ketma-ketlikda yuklanadi: 2 kg MS 1 qog‘ozli chiqindi, 2 kg rangli ip qiyqimlari, 25g zarxal, 47.5 g kraxmal, 850 g KMS, 2.5 g NA-1 sirt faol moddasi. So‘ngra, apparat qopqog‘i yopiladi va 1-2 minut maydalanadi. Kompozitlar quruq holda maydalanadi. Shu apparatda 1 tonna mahsulot olingach, 3 va 10 kg polietilen paketlarga qadoqlanadi. Paket sitida foydalanish yo‘riqnomasi, miqdori va ishlab chiqarilgan korxon nomi hamda sanasi keltiriladi.



**1-rasm.** Maydalagich apparati:

- 1 –  $0,1\text{ m}^3$  apparat;
- 2 – o‘q; 3 – pichoqlar;
- 4 – qopqog‘;
- 5 – mahsulot chiqish joyi;
- 6 – el. Dvigatel;
- 7 – tayanch oyoqlari.

**Tayyor maxsulotni devorga surtish.** Tayyor maxsulotdan devorga surtish massasini tayyorlash (suyuq gulqog‘oz) holga o‘tkazish uchun uning ustiga  $60-70^{\circ}\text{S}$  haroratda suv olib 1:8 nisbatda, ya’ni 1kg quruq tayyor maxsulot ustiga 8 litr issiq suv solib, 15 dan 60 minutgacha bo‘ktiriladi. Massa vaqti vaqti bilan aralashtirilib turiladi. Devorga surishdan oldin devor yuzini yaxshilab mexanik usulda tozalab gruntovka sifatida emulsiya yoki KMS yelimdan oz miqdorda suyultirib devor yuzasi ishlov beriladi. Devor yuzi tekkis bo‘lgan holda 1 kg suyuq gulqog‘ozi  $4-5\text{ m}^2$  maydonga suriladi. Quyida har xil rangli gulqog‘oz massasi suvolgan namunalar surati keltirilgan.



### **Nazorat savollari**

1. Yog'och kompozit material sifatida qanday komponentlardan tashkil topgan?
2. Shpon qanday kompozitlar uchun xom ashyo hisoblanadi?
3. Payraha, qirindi, yog'och zarrachalari, qipiq, yog'och tolalari va yog'och uni asosida qanday kompozitlar mavjud?
4. Duradgorlik plitalarining an'anaviy va zamonaviy turlarini aytib bering.
5. Fanera turlarini sanab bering va ularni o'zaro qiyoslang.
6. Egib elimlangan zagotovkalar qanday xom ashyo asosida olinadi?
7. Yog'och-qirindili plitalar va orientirlangan qirindili plitalarni o'zaro qiyoslang,
8. Yog'och tolali plitalarning turlarini sanab bering va ularni o'zaro qiyoslang.
9. MDP boshqa kompozitlardan qanday farqlanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Rowell M.R. Handbook of wood chemistry and wood composites. Second edition. "CRC-Press". USA. 2013. 473 p.
2. Xabibullayev R.A., Ilhomov G'.U., Xabibullayev Sh.A. Yog'och buyumlar texnologiyasi. Darslik. O'z.R OO'MTV/ T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. 256 b.



## 4-ma'ruza: Organik mahsulotlar ishlab chiqarishdagi nanomateriallar.

### Reja:

1. Organik nanomateriallar va o'tkazgichlar.
2. Organik nanomaterial namunalari.
3. Nanozarrachalarning keng tarqalgan turlari va ularning qo'llanilishi.



### 1. Organik nanomateriallar va o'tkazgichlar.

Organik nanomateriallar nima?

«Nano» atamasi -gnom, karlik ma'nolarini anglatadi.

1 nm =  $10^{-9}$  m ga teng bo'ladi.

Agar biror moddaning hajmi bir, ikki yoki uchta korrdinata bo'yicha nanometr masshtabigacha kichrayganda yangi sifat paydo bo'lsa, yoki bu sifat o'zgarishi bunday kichik o'lchamdagi ob'ektlar kompozitsiyasidan hosil bo'lsa, u holda bu mahsulotlarni nanomateriallar sirasiga qo'shish kerak, bunday texnologiyalarni esa "nanotexnologiyalar" deb atash mumkin.



Material – mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan modda yoki moddalar aralashmasi bo'lib, u ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladi va tayyor mahsulotga muayyan xossalarni beradi.

Materialshunoslik – fanning fanlar orasidagi bo'limi bo'lib, materiallarning qattiq, suyuq va ba'zi omillarga bog'liq holdagi xossalarining o'zgarishini o'rganadi. O'rganiladigan xossalarga quyidagilar misol bo'lishi mumkin: modda tuzilmasi, elektron, termik, kimyoviy, magnit, optik va shu kabi xossalalar. Sanoatda ilmiy sig'imi katta bo'lgan buyumlarni tayyorlashda, ayniqsa, mikro- va nano



o'lchamdagi ob'ektlar bilan ishlaganda, materiallarning xarakteristikalari, xossalari va tuzilishini aniq bilish kerak.

Molekulalar va moddalarning xossalari quyidagilar misol bo'la oladi: bog' uzunligi, burchaklari, ionlanish potentsiali, elektronlarga yaqinligi, chegaraviy orbitallari, ko'rinishi, zichligi, o'tkazuvchanligi, elektron spektrlari, rangi, optik faolligi.

Endi, quyidagi savollarga javob berishga harakat qilamiz:

- Moddaning qanday hossalari uning uzunligiga bog'liq bo'ladi?
- Bu bog'liqlik paydo bo'ladigan eng yuqorigi chegarani ko'rsating (molekulalar soni)?
- Moddaning hajmdagi va plyonkadagi xossalari o'rtasida farq mavjudmi?
- Monoqatlam deganda nimani tushunasiz? Bir molekula qalinligidagi qatlam qalinligimi? Bir nechta molekulalar qalinligidagi qatlam qalinligimi? Yana nima deyish mumkin?

Endi yuqoridagi savollarga javob berishga harakat qilib ko'ramiz.

Moddaning o'lchamlarga bog'liq bo'lgan xossalari quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- mexanik xossalari;
- yumshash temperaturasi;
- magnit hossalari;
- o'tkazuvchanlik;
- adsorbsiya/desorbsiya, bo'yalish;
- issiqlik o'tkazuvchanlik;
- va boshqa xossalalar.

### **Moddaning mexanik xossalari**


- Kristallarning mexanik mustahkamligi  $d$  diametriga bog'liq bo'ladi:

$$\sigma = k \cdot d^{-0,5} + \sigma^0$$


Ya'ni, kristallar qanchalik kichik bo'lsa, ular shunchalik darajada mexanik mushahkam hisoblanadilar.

Bunga defektlarining kamligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Nuqsonlar odatda muayyan hudud chegarasida keng tarqalgan bo'ladi. Shunday qilib, bo'lim yuzalari qanchalik katta bo'lsa, ularning plastikligi va turg'unligi shunchalik yuqori bo'ladi.

### Yumshash temperaturasi



Oltin nanozarrachalari yumshash temperaturasining uning o'lchamlariga bog'liqligi



### Elektr o'tkazuvchanlik / elektr qarshilik

Elektr qarshilik elektronlarning moddaning yoki moddalar aralashmasining tebranuvchi atomlarida yoki bir jinsli bo'lmagan panjaralarida taqsimlanishi natijasidir.


Elektronning erkin yurish masofasi uzunligini zarrachalar o'lchamlariga yaqin bo'lsa, bunda qarshilik yuqori bo'ladi.

Agar zarrachalar etarli darajada kichik bo'lsa, o'tkazuvchilar yarim o'tkazgichlarga, yarim o'tkazgichlar esa izolyatorlarga aylanadi.


Fizik-kimyoviy xossalarning o'zgarishi 1...10 nm oraliqda sezilarli darajada bo'ladi.

Metallar uchun zarracha o'lchamlariga bog'liq ravishda metallik xossalarning namoyon bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Masalan, simob klasterlari uchun metall-izolyator fazasidagi sekin o'tishlar atomlar soni  $N = 20$  va  $N = 102$  bo'lganda sodir bo'ladi.

### Yutilish spektrlari (rang)




Nurning nanozarrachalar bilan ta'sirlashishi.




Nanozarrachalar kattaligiga yaqin o'lchamdagi to'lqinlar uchun yutilish samarasi ortadi.

### Flouressensiyaning o'lchamlarga bog'liqligi



Ultrabinafsha nurlanishda turli o'lchamdagi CdSe nanokristallari.

Moddaning xossalari zarrachalarning o'lchamlari bir necha nanometr bo'lganda odatdagi moddaning xossalaridan farq qiladi. Ko'pchilik hollarda bu o'lcham 1...100 nm ni tashkil etadi. Nanofizika va nanokimyo fanlari bunday ob'ektlarning o'zini mana shunday o'ziga xos tarzda tutishiga asoslangan.



Nanomateriallarning strukturaviy birligining chiziqli o'lchami taxminan 1...1000 atom (molekula) qatlamlari oralig'ida o'zgaradi. Hajmi esa  $10...10^6$  atom (molekula) atrofida bo'ladi.

### **O'lcham effekti**

Moddaning fizik-kimyoviy xossalarining nano-diapazonda o'zgarishi quyidagilarga asoslaniladi:

- 1) zarrachalar o'lchamlarining bevosita kichrayishi (donalar, kristallitlar);
- 2) bo'lim chegaralarining tizim xossalariga qo'shilishi;
- 3) zarrachalar o'lchamlarining uzunlik o'lchovi va tizim xossalarini belgilovchi fizik omillar bilan o'lchanuvchanligi (magnit domenlari o'lchami, elektronning erkin yurish uzunligi, debroylev to'lqin uzunligi va h.k.).

### **Nanokimyo nima?**

1-ta'rif. Nanokimyo – bitta yo'nalishdagi 1...100 nm o'lchamli strukturalar kimyosidir.

2-ta'rif. Nanokimyo – ob'ektlarning kvant xarakteri bilan bog'liq bo'lgan kimyo hisoblanadi.

3-ta'rif. Nanokimyo – bu ob'ektlarining o'lchamlari 1...100 nm bo'lgan materiallarning xossalarini, ularning o'ziga xosligidan foydalangan holda tushunish va nazorat qilishdir.

### **Nanotexnologiyalar bizga nima beradi?**




Moddalarning yangi xossalaridan foydalanish – bu fan va sanoatning elektronika, energetika, kimyo, axborot texnologiyalari, farmatsevtika va boshqa ko'plab sohalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlardir.

Bugungi kunda nanotexnologiyalarning qo'llanilishiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- energetikada – quyosh batareiyalari, akkumulyatorlar, yoqilg'i elementlari, tejamkor yoritish manbalari.
- tibbiyotda - ekspress-diagnostika, nano-dorilar va nano-vaksinalar.
- elektronikada – mikroprotessorlar o'lchamlarining kichrayishi.
